



**O'ZBEK XALQ  
MUSIQA IJODIDA  
USTOZ-SHOGIRD  
AN'ANALARI**



**SH. TURDIEV**

Qo'qon DPl, katta o'qituvchi

[https://doi.org/10.47689/STARS.](https://doi.org/10.47689/STARS.university-pp124-128)

university-pp124-128

*Tengsiz ma'naviy boyligimiz bo'lmish mumtoz san'atni, xalq ijodining nodir namunalarini asrab-avaylash va rivojlantirish, uni kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish jahondagi ilg'or fikrli olimlar va san'atkorlarning, davlat va jamoat arboblari, barcha madaniyat ahlining ezgu burchidir.*

*Folklor san'ati, ta'bir joiz bo'lsa, bu – insoniyatning bolalik qo'shig'idir.*

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev.**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'qitishning milliy, ustoz-shogird uslubini, yangi zamonaviy uslublarini yaratishda ta'lim texnologiyalarining muhim o'рни va vazifalari qiziqarli ma'lumotlar asosida yoritildi. O'zbek xalq musiqa ijodi fanidan yaratilgan ushbu maqolada zamon talablari asosida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda, o'quv reja asosida ma'ruza va amaliy tarzda o'tkazilishi rejalashtirilgan mashg'ulotlarda o'zbek xalq musiqa ijodining hududlarga xos murakkab ijro uslublari, mohir ijrochilar, cholg'u sozlari, katta ashula, dostonchilik, xalfachilik, folklor va baxshichilikka oid ma'lumotlarkeltirilgan.

**Tayanch iboralar:** ustoz, shogird, o'rganuvchi, hofiz, yaktak, ma'ruza, mumtoz san'at, hududga xos musiqa, xalfachilik, dostonchilik, baxshichilik, shashmaqom, mavrigi.

An'ana, qadriyat, urf-odatlar har bir xalqning o'zigagina xos milliy xususiyatlarini ifodalovchi omillardir. Ayni jihat inobatga olingan holda, O'zbekistonda an'anaga aylanib qolgan 2019 yilda o'tkazilan "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivalidan tashqari yana "Maqom", "Baxshichilik", "Folklor" va "Hunarmandchilik" xalqaro festivallari tashkil etildiki, ushbu festivallar yurtimizda muvaffaqiyatli tarzda o'tkazib kelinmoqda. O'tkazilgan festivallarda jahonning yuzdan ortiq mamlakatlaridan turli sohalarbo'yicha rahbarlar, mutaxassislar va mehmonlar ishtirok etdilar. Ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda barcha sohalar bo'yicha yaratib berilgan keng imkoniyatlar, yurtimizda mavjud sharoitlar bois shunday nufuzli xalqaro festivallar tantanavor tarzda o'tkazildi va bu jarayonni butun dunyo ahli o'z ko'zi bilan ko'rdi. Bu, albatta, O'zbekistondagi barqaror tinchlik va xotirjamlikning nishonasidir. Yuqorida sanab o'tilgan festivallar natijasida Samarqand-u Buxoroda, Qashqadaryo, Surxondaryoda, Xorazm-u Qoraqalpoq diyorida, Jizzax-u Sirdaryoda go'zal vodiyning qo'shiq va laparlari, xalq amaliy san'ati ham-

da hunarmandchiligi, umuman aytganda, hududlarning serjilo madaniy hayoti rang-barang chizgilarda gavdalantirilmoqda.

O'zbek xalqining urf-odatlarini, marosimlari va an'analari berilayotgan katta e'tibor, ularni tiklash, saqlash va keyingi avlodlarga yetkazish yo'lida samarali sa'y-harakatlar olib borilmoqda. Bu borada "Ustoz-shogird" an'anasining davom ettirilishi yoshlarga saboq berishning o'ziga xos ko'rinishlaridan biridir.

Xalqimizda: "Ustoz ko'rmagan shogird har maqomga yo'rg'alar",- degan naql bor. Har kasbning o'z ustalari bo'lgani kabi ustozlikkasbini avloddan avlodga yetkazuvchi izdoshlar, o'rinbosarlar, qisqa qilib aytganda, shogirdlarning ham bo'lishi tabiiy. O'z kasbining ustasi bo'lgan ustozlar o'zlarining bebaho hunarlarini o'zi bilan olib keta olmasligi barobarida o'sha hunarni shogirdlariga o'rgatadi. O'z navbatida, shogirdlar ham ustozdan o'rgangan hunarni rivojlantirib, o'z imkoniyati darajasida keyingi avlod shogirdlarini yetishtirib chiqaradi. Ustoz-shogirdlik bizning milliy an'analimizga xosdir. San'at, xususan, qo'shiqchilikdagi mazkur an'ana borasida katta tajribaga egamiz. Ozod diyorumizda shunday ijrochilik maktablari mavjudki, bir-biridan go'zal, bir-biridan zabardast, rang-barangligini ta'riflashga til ojiz:

Ustoz Hojixon Boltayev - shogird Ro'zmat Jumaniyozov;

Ustoz Yunus Rajabiy - shogird Orif Alimahsumov;

Ustoz Hoji Abdulaziz Abdurasulov - shogird domla Halim Ibodov;

Ustoz Jo'raxon Sultonov - shogird Ma'murjon Uzoqov;

Ustoz Fattoxon Mamadaliyev - shogird Mahmudjon Tojiboyev;

Ustoz Faxriddin Umarov - shogird Hojiakbar Hamidov. Buni yana uzoq davom ettirish mumkin. Ustoz-shogirdlik an'anasida yana shunday bir qonun mavjudki, ustozlar ijro uslubidagi o'zlariga ma'lum sirlarini shogirdlariga o'rgatmaydilar. Zero shogird o'z iqtidori, quvvayi-hofizasi ila bu sirni kashf etadi. Aytishlaricha, Ustoz Jo'raxon Sultonov "Sodirxon ushshog'i" ashulasini ustoz Sodirxon hofizdan bevosita o'rganmagan. Balki o'zbeklarga xos bo'lgan to'y-hashamlarda, ustoz ishtirok etadigan davralarda birga bo'lib, aynan shu qo'shiq ijrosini sinchkovlik bilan kuzatib, tinglab, "Sodirxon ushshog'i" ashulasi ijro etilganda butun vujudini quloq qilib o'rganganligi xususida ibratli hikoyatlar yuradi. Asrlar davomida shakllanib, qaror topib rivojlanib kelgan ustoz-shogirdlik an'analari davomchilari bo'lgan Tavakkal Qodirov va Sultonali Mannopov ustoz-shogird sifatidagi faoliyatlari "San'atga baxshida umr" deb nomlangan risolada aks ettirilgan. Ushbu risolada Farg'ona vodiysi ijrochilik maktabining vakillari xususida so'z yuritiladi. Farg'ona vodiysi - qadimdan san'atga shinavanda xalq. Farg'ona vodiysi san'atning o'chog'i, qaynab turgan bulog'i hisoblanadi. Farg'onadan juda ko'plab san'atkorlar, xalq e'tiboriga tushgan xonanda va sozandalar yetishib chiqqan. Ayniqsa, hofizlik borasida so'z ketganda, Hamroqul qori To'raqulov, Erka qori Karimov, Boltaboy Rajabov, Mamatbuva Sattorov, Akbar Haydarov, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov, Murodjon Ahmedov, Rasulqori Mamadaliyev, Tavakkal Qodirov, Fattohon Mamadaliyev singari ustoz-hofizlar yaratib ketgan Farg'ona ijrochilik maktabi alohida o'rin tutadi. Farg'ona ijrochilik maktabi o'zgacha bir uslublari va ohanglar jozibadorligi bilan boshqa viloyat ijrochilik maktablaridan ajralib turadi. Farg'ona vodiysi ijrochilik maktabi qadimdan rivojlanib kelgan. Bu maktabni rivojlantirishda juda ko'p ustozlarning mehnatlari singgan. Ana shunday ulug' ustozlardan biri, bor umrini san'atga baxshida etgan, "O'zbekiston

bulbuli” degan ulug’ bir nomga sazovor bo’lgan, O’zbekiston xalq artisti Tavakkal Qodirov fikrimizning isbotidir. O’zbek qo’shiqchiligi san’atida ustoz-shogirdlik an’anasi g’oyibona tarzda ham amalga oshiriladi. Masalan, ushbu uslubda shogird mashhur qo’shiqchi san’atkorning ijodini mustaqil tarzda o’rganadi va o’rganish ishlari me’yoriga yetganda, o’sha ustozga o’rgangan qo’shiqlarini ijro etib, ustozning xulosasini oladi. Buning isboti uchun quyidagi dalilni keltirish kifoya deb o’ylayman: 1958 yilning yoz oylarida bir unutilmas ustoz-shogird uchrashuv ro’y berdi. Bu uchrashuv g’oyibona shogird (Tavakkal Qodirov)ning hayotida yana yangi bir sahifa ochdi. Mashhur hofiz, O’zbekiston xalq artisti Komiljon Otaniyozov yangi tuzgan “Lazgi” ansambli bilan Farg’onaga gastrolga keldi. Ansambl tarkibida Kommuna Ismoilova, Quvondiq Iskandarov, Ro’zimat Jumaniyozov, Nurmuhammad Boltayev, Sharif Sultonov, Jumanazar Bekjonov, O’rinboy Otajonov singari taniqli san’atkorlar bor edi.

Qadim zamonlardan buyon to’ylarda aytiladigan “Yor-yor”, “Yalla”lar ham jamoa bilan, ya’ni, xor bo’lib ijro etilgan. Asrlar davomida to’plangan boy merosimiz “Shashmaqom”ning ashula (vokal) qismidagi taronalar ham ko’pchilik xonandalar tomonidan jamoa bo’lib ijro etilgan. Xalq orasida keng tarqalgan “Katta ashula”lar ham ikki, uch va to’rt kishi bo’lib ijro qilingan. Bu ijrochilik san’ati ham jamoaviy ijroning bir ko’rinishidir. O’zbek xalqining ko’p janrli mumtoz musiqa ijodiyotida katta ashula janri alohida, salmoqli o’rinni egallaydi. U yirik ashula janri bo’lib, asosan, Farg’ona vodiysiga xosdir. Katta ashula muxlislar davrasida baland va kuchli ovozda ijro etiladi. Xalq orasida uni “likop ashula” yoki “likopcha ashula” deb ham atashgan. Katta ashula ijrosida musiqa cholg’u sozlari jo’rligidan foydalanilmaydi. Zamonaviy musiqa terminlari bilan aytadigan bo’lsak, ushbu janrning ayrim jihatlarini vokal-xor ijrosidagi “A-kapella”ga qiyoslash mumkin. Katta ashulamono, duet, trio, kvartet uslubida ko’proq ijro etiladi. Bu bilan shuni ta’kidlash lozim bo’ladiki, o’zbek qo’shiqchiligi o’zining ko’p ming yillik boy tarixiga egadir. Katta ashula janrining o’ziga xos asosiy jihatlaridan yana biri ushbu janr kuylovchi oldiga juda katta talablarni qo’yadi. Masalan, qo’shiq kuylovchi ijro san’atidan puxta bilim va tajribaga ega bo’lishi, o’zbek mumtoz she’riyatini yaxshi bilishi, keng diapazonli tiniq va jarangdor ovoz sohibi bo’lishi, ovozni to’g’ri yo’naltirish maqsadida qo’lidagi likopchani harakatlantira bilishi va h.k.larni yaxshi o’zlashtirgan bo’lishi kerak. Shuning uchun ham katta ashula janriga uncha-muncha qo’shiqchilar qo’l ura olmaydilar. Buning boisi shundaki, katta ashulalar muxlislar ko’z oldida jonli ijroda kuylanadi va ashaddiy tinglovchilarning olqishlaridan ruhlangan ijrochi ashulaning avj va katta avj qismlarini bir, ikki (ton) parda va undan-da yuqoriroqda kuylab, yonidagi kuylayotgan hamrohini qiynab qo’ygan ijro holatlarini eslab o’tish kifoya qiladi. Bu katta ashulaning erkin ijro shakliga kiradi. Ijroning ushbu turi xuddiki askiyachilarning payrovlar aytish jarayonidagi so’zamolligini namoyish qilish singari kechadi va ovozi kuchli, mohir qo’shiqchilar muxlislar tomonidan shu yo’l bilan saralab olingani bizga tariximizdan ma’lum. Bunday ijodiy raqobatlar ijodkorlarni o’z ustlarida ishlashlariga, o’z iste’dodlarini maromiga yetkazish maqsadida tinmay izlanishlariga dalda bo’lgan.

Katta ashula O’rta asrlarda marosim va mehnat qo’shiq-aytimlari negizida mumtoz she’riyat va xonandalik ijro madaniyatining rivojlanishi, mumtoz (klassik) g’azallarni an’anaviy o’qish, o’rganish asosida yuzaga kelib rivojlandi. Uning o’tmishdagi namunalarida ishqiy-lirik g’azallar bilan bir qatorda, didaktik (nasihat), tasavvuf ruhidagi she’rlar ham kuylangan. Keyinchalik Lutfiy, Navoiy, Mashrab, Amiriy, Xazi-

niy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Miskin va boshqa shoirlarning she'r va g'azallari ham katta ashulada qo'llangan. Katta ashula rivojida masnaviy, ruboiy, muxammas, musaddas kabi poetik janrlar muhim rol o'ynaydi.

Aruz vaznida yozilgan bu g'azal tinglovchilarda zavq-u shavq, turfa ruhiy kechinmalar uyg'otib, katta ashula janri orqali xalq orasida keng tarqalishiga olib keldi. Musiqiylik – she'riyatning eng asosiy fazilati, deb bejiz aytilmagan. Katta ashula mazmun jihatdan falsafiy, ishqiy-lirik, didaktik turlarga bo'linadi. Hofizlar, odatda, she'r baytidan boshlang'ich birinchi-uchinchi misralarining har birini navbatma-navbat ijro etadilar. Boshlovchi birinchi misra bilan reja tashlasa, ikkinchi hofiz (agar ikki ijrochidan iborat bo'lsa) shu misrani takrorlaydi. Kuy yo'nalishiga u ayrim o'zgarishlar (variantlar) kiritadi. Keyingi misra ikkala ijrochi tomonidan bir parda (ton) balandroq, navbatma-navbat aytiladi. Avj qismi ham shunday uslubda yuqori pardalarda ijro etiladi. Har band (bayt)ning oxirgi misrasi aytilganda, goh misra boshidan, goh misra yarmidan ashula nihoyasiga yetkazilganda, ikkala hofiz birga birovlik (unisson) tarzida kuylab, ashula daromadi boshlovchi tashlab bergan reja darajasiga tushiriladi. Shu sababli katta ashulada nota misollarida o'lchov ishlatilmaydi. Katta ashulani yoshlarimizga faqat "Ustoz-shogird" uslubida o'rgatish mumkin. Buning uchun "Bolalar musiqa va san'at maktab"lari qoshida ushbu sohaga alohida ahamiyat berilmoqda. Ustoz tomonidan katta ashula ijrosi (mutatsiya yoshini qat'iy hisobga olgan holda) o'rgatilgan bolalarda kuy va qo'shiqchilik borasida notalar balandligini aniq ijro etish malakalari tez va soz rivojlanadi. Bu esa yoshlarimizni yengil-yelpi "zamonaviy musiqa asarlariga" berilmaslikka, haqiqiy san'at asarini qalban his etishga, uni e'zozlash, qadrlashga orgatadi, albatta. Respublikamizda katta ashulani muhofaza qilish va rivojlantirish borasida bir qator ulkan ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. O'zbekistonlik hofizlarimiz xorijiy mamlakatlarda katta ashula ijrochilik san'atini namoyish etmoqdalar. "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivallarida xonandalarimiz Munojot Yo'lchiyeva, Soyibjon Niyozov va ushbu qo'shiqchilik uslubi vodiyyga xos bo'lgani sababli vodiyning yetuk qo'shiqchi hofizlari va ko'plab mahoratli yosh ijrochilar aynan katta ashula ijrochiligi bo'yicha o'z mahoratlarini namoyish etib faxrli o'rinlarga ega bo'lishmoqda. Yoshlarni katta ashula, maqom, folklor, dostonchilik, baxshichilik, askiya san'atiga jalb qilish kabi vazifalar har bir pedagog-ustozning oldidagi burchidir. Zero, yuqorida sanab o'tilgan san'at turlari insoniyat hayoti sivilizatsiyasining durdonalaridir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev.  
"Xalqaro baxshichilik san'ati festivali ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosim"dagi nutqi. "Xalq so'zi" gazetasi 2019 yil 7 aprel, № 68 (7298).
- 2.Saodat Yo'ldosheva, professor. "O'zbek xalqining milliy folklor san'ati va etnomadaniy qadriyatlari" Ilmiy to'plam. Toshkent "Navro'z" nashriyoti 2013 yil
- 3.Askarova, S. "Great Song Genre in the Ethno Music of Uzbek Folk Music." JournalNX 7.05 (2021): 131-134.
- 4.Asqarova, Sohibaxon, and Muslimaxon Muhammadjonova. "O 'YIN TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK VOSITASI SIFATIDA." Scientific progress 2.2 (2021): 317-321.

5.Madaminovich, Fozilov Qaxramon. "Problems of Orchestra Performance in The Practice of Training Smugglers." *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630) 8 (2021): 42-45.

6.KHOLJURAYEVICH, MADAMINOV NASIMJON, and FOZILOV KAXRAMON MADAMINOVICH. "The Role of Folklore in the Emergence of the Art of Singing." *JournalNX* 7.1: 128-130.

7.Eminjanovna, Shodiyeva Gavkhar. "The role of national music in education of youth." *ACADEMICA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL* 11.2 (2021): 1285-1288.

8.Asqarova, S. . «XOR VA XORSHUNOSLIK FANI DARSLARIDA KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH». *Eurasian Journal of Academic Research*, т. 2, вып. 7, июль 2022 г., сс. 62-65, <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/1972>.